

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

A.QODIRI NOMLI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABASI

XODJAYEVA SHAXL Oning

NUTQ O'STIRISH METODIKASI FANIDAN

REFERATI

JIZZAX – 2012

MAVZU: BOLALAR BOG'ChASIDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

REJA.

1. BOLALAR BOG'ChASIDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI MAZMUNI.
2. BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR.
3. BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MASHG'ULOTLARDAN NAMUNA.
4. XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “TIL VA NUTQ O'STIRISH METODIKASI” FANIDAN MA'RUZALAR MATNI. JIZZAX 2011 YIL
2. “MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINING NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARIDAN ISHLANMALAR NAMUNASI.
3. “UCHINCHI MING YILLIKNING BOLASI TAYANCh DASTURI”. 199 YIL.
4. BOLAJON DASTURI.
5. MAKTABGACHA TA'LIM JURNALI. 2005 YIL. 2 SON

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim tizimining eng asosiy va zarur bo'lgan ajralmas bir bo'lagi ekanligi tushunib yetildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bola xar tomonlama maktab ta'limiga tayyorlanadi. Ular orasida bola nutqini rivojlantirish eng asosiylaridan hisoblanadi. Ularning so'z boyligi oshishi ravon gapirishi va o'z fikrini to'lik ifoda etib, aytib bera olishi juda muhim. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tiladigan mashg'ulotlar orasida nutq o'stirish mashg'uloti eng asosiy mashg'ulotlardan hisoblanadi.

Bu mashg'ulotda xar bir yosh guruh bolalarining yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda davlat talablari qo'yiladi.

Ikkinchi kichik guruhda -* bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

- ❖ Tevarak atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish lug'utini boyitish;
- ❖ Nutqning gramatik tomonini shakllantirish;
- ❖ Nutqning tovush ma'daniyatini tarbiyalash;
- ❖ So'zlashuv nutqini shakllantirish;
- ❖ Badiiy adabiyot bilan tanishtirish;

Kichik gurux - bolalari tarbiyachining hikoyasini eshitib, uning savollariga javob bera olishi, mavzulardagi rasm yuzasidan suhbatlarda ishtirok etishi bilan birga, avval eshitgan ertak va hikoyani xotirasida tiklab , uning mazmunini buzmasdan aytib bera olishlari lozim.

O'rta va katta guruhlarda bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

- ❖ Tevarak atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish lug'utini boyitish;
- ❖ Nutqning gramatik tomonini shakllantirish;
- ❖ Nutqning tovush ma'daniyatini tarbiyalash;

- ❖ So'zlashuv nutqini shakllantirish;
- ❖ Badiiy adabiyot bilan tanishtirish;
- ❖ Hikoya qilishga o'rgatish;

Tayyorlov guruhda – bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

- ❖ Tevarak atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish lug'utini boyitish;
- ❖ Nutqning gramatik tomonini shakllantirish;
- ❖ Nutqning tovush ma'daniyatini tarbiyalash;
- ❖ So'zlashuv nutqini shakllantirish;
- ❖ Hikoya qilishga o'rgatish;
- ❖ Badiiy adabiyot bilan tanishtirish;
- ❖ Bolalarni savodga o'rgatishga atyyorlash;

Bir yoshgacha bo'lgan bolalap so'z zaxirasida 15 tagacha so'z bo'lib, foiz jixatidan olganda ot so'z turkumiga oid bo'ladi.

Birinchi yilning oxiriga kelib bolaning so'z zaxirasida sifat so'z turkumiga oid so'zlar qo'shladi. Bir yoshdan keyin bola ot, sifat, narsa va xodisani ifodalovchi so'zlar fe'l so'z turkumiga oid so'zlarni bog'lashni o'rganadi. Bu yoshda muloqotga bo'lgan ehtiyoj nutq asosida umumlashtirish, so'zlarning o'rnini almashtira olish, ma'lum predmetni boshqa so'zga almashtirish, til belgilari bilan amallar bajarish qobiliyati rivojlanadi.

Bir yoshdan bir yosh olti oylikkacha bo'lgan bolalarda xar oyda 30-40 ta so'z o'zlashtiriladi.

Ilk yoshdagi bolalarga o'rgatish jarayonida ko'rsatib nomini aytish, yo'qlama usullaridan foydalaniladi, shuningdek takrorlash usuli ham foyda beradi. Yo'qlama va takrorlash usuli birgalikda olib borilsa, ko'proq natijaga erishiladi.

Xar bir mashg'ulot bolalarning bilishi va tafakkuri, ahloqiy malakalarini shakllantirishga yordam berishi lozim.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalar nutqini rivojlantirish vositalari juda ko'p va hilma-xil. Ulardan eng asosiysi badiiy adabiyot. Badiiy adabiyot bu – turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan so'z san'ati bo'lib, voqialikni bolalarcha idrok etish, bolalarga tasavvur va tafakkur obrazlarida gavdalantiruvchi badiiy asarlar majmuasi hisoblanadi.

Barcha xalqlarda bolalarga mo'ljallangan ijod etish an'anasi uzoq tarixga ega.

Allalar

Xalq ijodida bolalarga qaratilgan so'z san'atining ilk namunasi alla hisoblanadi. Alla beshik qo'shig'i. U bolani ovutish, uxlatish maqsadida, mayin ovozda aytiladi. Alla bolaga zavq bag'ishlaydi, ma'naviy tarbiya beradi.

Namuna:

Alla bolam alla, jonim bolam alla

Ikki ko'zim alla, shirin so'zim alla.

Alla bolam baxting bor, xar narsaning vaqti bor.

Uxla bolam alla, alla bolam alla.

Ertaklar

Ertak ham bola nutqini rivojlantirishda eng muhim vositadir. Ertaklar xayot xaqiqatini, xayotiy va uydurmalar asosida tasvirlangani tilsim va sexr vositalariga asoslanishi, voqyea va xarakatlarning ajoyib holatlarda kechishi, qaxramonlarning g'ayri tabiiy jasratlari bilan boshqa janrlarda farq qiladi.

Bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar xayvonlar xaqida sexr jodu, fantastik, sarguzasht ertaklar bo'ladi.

Bolalar ertaklardagi ijobiy qaxramonlarning xarakteri, fazilatlari va boshqa tomonlarini o'rganadi. Ularning lug'atida yangi so'zlar paydo bo'ladi.

Har bir ertakda bolalar uchun yangiik bo'lishi kerak.

Ertak qaxramonlari bajaradigan ishlarini va ezguliklarini bola o'z xayotida amalga oshira boshlaydi.

MAQOLLAR

Maqollar xalqning bir necha avlodlari, aql farosati va turmush tajribasining natijasi. Ular donishmandligini maxsulidir. Bog'cha yoshidagi bolalar uchun mazmuni tushunarli, xajmi kichik bo'lgan Vatan xaqidagi, do'stlik, ota-ona, odob-axloq, mehnat xaqidagi maqollarni yodlatish tavsiya etiladi.

❖ Mexnat, mehnatning tagi rohat.

❖ Ish ishtazxa ochar,

Dangansa ishdan qochar

❖ Bulbul chamannni sevar,

Odam Vatanni

❖ Mexnatdan kelsa boylik

Turmush bo'lmar chiroylik,

❖ Bo'linganni bo'ri yer,

Ayirilganni ayiq yer.

❖ Ona bilan bola ,

Gul bilan lola.

❖ O'zga yurtda shox bo'lguncha,

O'z yurtingda gado bo'!

TOPISHMOQLAR

Topishmoqlar ham maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishda katta ahamiyatga ega. Har bir topishmoq biror bir predmetga qaratilgan bo'ladi.

Bolalar topishmoqlar orqali biron bir predmetning belgilari, uning bajaradigan vazifasi va ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Topishmoqlar bolaning faqat nutq o'sishiga emas, balki fikrlashga, o'ylashga, topqirlik va chaqqonlikga o'rgatib boradi.

- ❖ Boshi bor-u, oxiri yo'q,
Ketaverasan bir yo'lda,
Oxiriga yetay dema,
Yetolmaysan million yilda

(Doira)

- ❖ Uchta uchi uchta burchak,
Va yana uchta tomon,
Uchchalasi qo'shilishib,
Yashaydi omon-omon.

(Uchburchak)

ShE'RLAR

She'rlar bolalarni chiroyli ma'noli, ifodali va ta'sirchan so'zlashga o'rgatadi.

Xar xil mavzudagi she'rlar bor maktabgacha ta'lim muassasalarida ko'pincha o'ynoqilik manzaraning aniqligi jonivorlar olami o'simliklar va mevalar ona Vatan, mehnatsevarlik haqida kichik xajmdagi sodda she'rlar o'rgatib boriladi.

Quyosh bilan teng turib,
Ozoda kiyintirib,
Senga taqamiz marjon,
Qo'g'irchoqjon, qo'g'irchoq.

Qo'ldan qo'ymaymiz sira,
Yuqtirmaymiz, gard-shira,
Ovunchoqsan bizlarga,
Qo'g'irchoqsan bizlarga.

XIKOYALAR

Bola nutqini rivojlantirishda xikoyalar ham katta ahamiyatga ega va u muhim vosita rolini o'taydi. Xikoyalar xayotda yuz bergan voqyealar asosida tuziladi. Shu sababli bola uchun, bu juda qiziq. Chunki bolalar ko'z oldida yuz beradigan voqyealarni eshitishni yoqtiradi.

Tarbiyachi bolalarga xikoyalarni ma'noli ifodali va ta'sirchan aytib berishi juda muhim. Bundan tashqari bola o'zi mustaqil xikoya tuzishga ham xarakat qiladi. U atrofga doim kuzatuvchan bo'ladi. Natijada bola voqyea xodisalarni chiroyli va ma'noli tushuntirishga, so'zlab berishga o'tganib boradi. Asta-sekin bola adabiy tilda so'zlashga ham o'rganib boradi.

Bolaga turli sur'atlar, manzaralar, rasmlar ko'rsatilib turli xikoyalar tuzish vazifasini berib borish juda katta ahamiyatga ega. Bunda bola so'zlarni so'zlarga va gaplarni –gaplarga ma'no jixatidan bog'lash xar bir qo'shimchalarni o'z o'rniga qo'yish ko'nikmalarni egallab oladi.

O'YIN

Mashg'ulotlarni turli noan'anaviy o'yin usullaridan foydalanib, tashkil etilsa, yanada samara beradi.

O'yin bola uchun ermak, quvonch manbaigina emas, balki uning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri, tasavvurini nutq boyligini o'stirishga xizmat qiladigan vosita hamdir. Bola xayotida o'yin, uning xarakterga, ishga, atrofdagi xayot ta'surotlarni tushunishga bo'lgan intilishini qondiradigan muhim faoliyat turidir.

O'yin bola xayotini qiziqarli mazmun bilan to'ldiradi. Uning x'ulq-atvorini shakllantirib boradi. O'yinlarni shunday tashkil etish kerakki, bunda soddalikdan asta-sekin murakkablikga o'tish qoidalariga rioya etish kerak.

O'yinlar bolalarni ham aqliy, ham ma'naviy, ham axloqiy tarbiyasidagi tutgan o'tni benihoya kattadir.

“ANTONIM SO'ZLAR” O'YINI

Bu o'yin katta va tayyorlov guruhlarda o'tkazilishi mumkin. O'yin mashg'ulot bolalarning mantiqiy tafakkurining rivojlanishiga samarai yordam beradi degan umiddamiz. O'yin induvidual, guruh bilan ham o'tkazilsa ham bo'ladi.

O'yin sharti qo'yidagicha:

Tarbiyachi bolaga bir so'zni aytadi, bola esa shu so'zning qarama-qarshi ma'no anglatuvchisini topadi. Masalan: katta-kichik, issiq-sovuq, qattiq-yumshoq, uzoq-yaqin va xokazolar.

Odatda bollar o'yin boshida bir oz qiynaladilar, aytilgan so'zga javoban, antonim emas sinonim so'zlar bilan javob beradilar. Ammo o'yinning mohiyatini tushunib olganlaridan so'ng abstrakt tushunchalarni ham osonlik bilan anglaydilar, hamda tezlik bilan javob berishga xarakat qiladilar. Masalan: chaqqoon-yalqov, ishchan-dangasa, odobli-odobsiz va xokazolar.

“AVVAL NIMA BO'LGAN EDI” O'YINI

Bu o'yin shartiga ko'ra bolalar tarbiyachi tomonidan aytilgan narsaning avval nima bo'lganini aytishlari kerak. Masalan: jo'ja-tuxum, ot – toychoq, kapalak – qurt kabilar. Bundan tashqari bittadan ko'p ma'noga ega bo'lgan so'zlardan ham foydalanish mumkin. Masalan: non – un – bug'doy, uy – g'isht – loy, stol – yog'och – daraxt – urug', ko'ylak – mato – ip – paxta – chigit tarzida o'yin davom etaveradi.